

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**“MARKAZIY OSIYO TARIXIY JARAYONLARIDA
O‘ZBEKISTON TARIXI
VA MADANIYATI MASALALARI”**

**MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA**

2025 yil 22-23 may

**QARSHI
“Qarshi davlat universiteti” nashriyoti
2025**

Gogidze tomonidan N. Dumbadzening "Hellados", Portugaliyalik Rui Madiero tomonidan A. Chexovning "To'y va taklif", Ruminiyalik Radu Ghilas tomonidan Vioril Savinning "Keksa xonim va o'g'ri" spektakllari muvaffaqiyatli sahnalashtirilganligi va bu spektakllar xalqaro festivallarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritib kelayotganligi ta'kidlandi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri direktori O'Maxmatqulov Portugaliya davlatining Braga shahrida bo'lib o'tgan xalqaro teatrlar namoyishi hamda "Yevroosiyo teatrlar assosatsiyasi"ning navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatri direktori O'tkir Mahmatqulov va Portugaliya davlati, Braga shahar teatri – "TEATRO CIRCO" direktori va badiiy rahbari Rui Madeyra o'rtasida ijodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadidan memorandum imzolandi. Memorandumga Rui Madeyra Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida A.Chexovning "Taklif" va "To'y" pesalari motivlari bo'yicha spektakl sahnalashtirdi. Ushbu spektakl 2024-yili iyul oyida Braga shahrida bo'lib o'tishi rejalashtirilgan xalqaro festivalda ishtirok etish uchun taklif etildi.[5]

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatriga tashrif buyurgan Fransiyalik taniqli rejissor Kristof Fitreer va teatr direktori O'tkir Maxmatqulov o'rtasida o'zaro hamkorlik shartnomasi imzolandi. Shartnomaga muvofiq K.Fitreer kelgusi yillarda teatr repertuari uchun munosib jahon klassik asarlaridan birini sahnalashtirish orqali ijodiy hamkorlik ishlari bardavom bo'lishiga kelishib olindi.

Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri Gruziya davlatining Ozurgetti shahrida bo'lib o'tgan N.Dumbadze nomidagi 4-xalqaro teatrlar festivalida Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida Gruziyalik rejissor Kaxa Gogidze tomonidan sahnalashtirilgan N.Dumbadzening "Hellados" spektakli bilan ishtirok etdi. Festival yakuniga ko'ra, "Hellados" spektakli "Eng yaxshi sahna dekoratsiyasi uchun" g'oliblikni qo'lga kiritdi. Ushbu mukofot spektaklni sahnalashtiruvchi rassomi Nurbek Hamidovga spektakldagi o'ziga xos uslubdagi ijodiy ishi uchun berildi.

Xullas, mustaqillik yillarida Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri faoliyatida muhim o'zgarishlar yuz berdi. Teatr binosi qaytadan ta'mirlandi. Aktyorlar ijodiy faoliyati uchun qulay sharoit va imkoniyatlar yaratildi. Teatr jamoasi turli xildagi xalqaro festivallarda ishtirok etdi. Sahnalashtirilgan asarlari bilan nufuzli mukofatlarni qo'lga kiritdi. Xorijiy davlatlarning teatrlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxti.

- 1.To'rayeva Matluba. O'zbekistonning janubiy hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy jarayonlarning dolzarb masalalari. Qarshi 2025
- 2."Ming nafas – bir ovoz" festivali rasmiy sayti. Festival hisoboti. Qiya: Konya Madaniyat boshqarmasi 2018.
- 3.Qashqadaryo viloyati musiqali drama teatri. Gastrol safarlari hisoboti. Qarshi: Teatr arxivi 2022.
- 4.Juan T. O'zbek teatrida zamonaviy rejissyorlik usullari. Istanbul: Teatr nashriyoti. 2019.
- 5.Qarshiteatr.uz sayti ma'lumotnomasi

O'ZBEKISTON – TURKMANISTON DAVLATLARI MADANIY ALOQALARI TARIXIDAN.

Oromov Sh.

QDU doktoranti

Annotatsiya Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari o'rtasida madaniy sohada amalga oshirilgan hamkorlik aloqalari kinofestivallar, xalqaro teart bayramlari, "Sharq taronalari" musiqa festivallari o'tkazilishi jarayonlari xususida ma'lumot berilgan.

Kalit so'z: Gran-Pri, "Dalli Dumbul", «Sharq taronalari», Xalqaro teatr uyushmalari, "Navro'z-92" xalqaro teatr bayrami, Xalqaro baxshichilik san'ati, XIII xalqaro musiqa festivali.

Аннотация В статье представлена информация о культурном сотрудничестве Узбекистана и Туркменистана за годы независимости, в том числе о процессах проведения кинофестивалей, международных театральных фестивалей, музыкальных фестивалей «Шарк тароналари».

Ключевое слово: Гран-при, «Далли Думбул», «Шарк Тароналари», Международные театральные ассоциации, Международный театральный фестиваль «Навроз-92», Международный

фестиваль искусства бахши, Международные театральные ассоциации, XIII Международный музыкальный фестиваль.

Abstract. The article provides information on cultural cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan over the years of independence, including the processes of holding film festivals, international theatre festivals, and the Sharq Taronalari music festival.

Keyword: Grand Prix, "Dalli Dumbul", "Sharq Taronalari", International Theatre Associations, International Theatre Festival "Navruz-92", International Bakhshi Art Festival, International Theatre Associations, XIII International Music Festival.

Bugungi globallashuv davrida dunyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik jarayonlarida madaniy sohada amalga oshirilayotgan hamkorlik aloqalari muhim ahamiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan dunyo davlatlari bilan har tomonlama va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini amalga oshirishni yo'lga qo'ydi. Madaniy aloqalar davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyat kasb etib, madaniy qadriyatlar almashinuvi orqali xalqlar o'rtasida yaxshi qo'shnihilik munosabatlarini yo'lga qo'yishda ham muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston o'z davlati tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida davlatlararo madaniy hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratdi. O'zbekiston va Turkmaniston davlatlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik aloqalari uzoq tarixga ega bo'lib, ikki mamlakat xalqlari manfaatlariga xizmat qilib kelmoqda.

O'zbekiston va Turkmaniston xalqlari madaniy aloqalarining asosiy shakllariga davlatlarning madaniyat kunlarini o'tkazish, teatr hamda musiqa jamoalari gastrollarini uyushtirish, san'at arboblari ijodkorlar qatnashadigan turli xalqaro festivallar, konkurslar va ko'rgazmalar o'tkazish kabilar kiradi.

O'zbekiston va Turkmaniston o'rtasida madaniy sohalarida hamkorlik qilishda "O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi va Turkmaniston madaniyat va sayyohlik vazirligining 1992-1995 yillarga mo'ljallangan bitim" (1992 yil) va "O'zbekiston Respublikasi va Turkmaniston o'rtasida madaniyat sohasida hamkorlik bitimi" (1996 yil)[1] kabi ikki davlat hamkorligiga doir normativ huquqiy hujjatlar asosida amalga oshirib kelinmoqda.

O'zbekiston hududida 1989 - yildagi aholi ro'yxatiga ko'ra 121,5 ming turkman millatiga mansub aholi istiqomat qilib kelgan bo'lsa[2], 1991- yilda 126,632 nafar, 2020 - yilga kelib ularning soni 202. 473 nafarni tashkil etdi. Demak yuqorida keltirilgan statistik ma'lumotlardan ham ko'rinib turibdiki, O'zbekiston Respublikasida yashayotgan turkman millatiga mansub fuqarolar yildan - yilga son jihatidan oshib bormoqda. Xuddi shuningdek Turkmaniston davlati hududida ham ko'plab o'zbek millatiga mansub fuqarolar yashab kelmoqda. Mazkur holat ham o'zbek va turkman xalqlari o'rtasidagi madaniy sohadagi hamkorlik aloqalarini yaxshilash uni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratish lozimligini ko'rsatadi. Madaniy sohadagi hamkorlikni muntazam amalga oshirish maqsadida ikki davlat o'rtasida qator hamkorlik dasturlari ishlab chiqilib hayotga tatbiq etilmoqda. O'zbekiston va Turkmaniston hududlarida o'tkazilayotgan turli tadbirlar, konsert dasturlari, festivallar va tanlovlar shular jumlasidandir.

Mustaqillik yillarida Markaziy Osiyo xalqlari teatrlarining o'zaro ijodiy hamkorligi yaxshi yo'lga qo'yildi. 1992- yilning 26-martda Toshkent shahrida "Navro'z-92" xalqaro teatr bayrami anjumani bo'lib o'tdi. Mazkur anjumanda oliy mukofot (Gran-Pri) Turkmaniston davlat yoshlar teatrining "Dalli Dumbul" spektakliga, Xalqaro teatr uyushmalari konferensiyasining maxsus mukofoti – Yu.Shakarjonov nomidagi Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrining "Toshkentga sayohat" komediyasiga berildi[3].

2008 - yil 7-12 aprel kunlari Ashxobod shahrida «Turkmaniston: insoniyat musiqa san'atining ma'naviy xazinasi» festivali bo'lib o'tdi. Unda «O'zbekiston solistlari» kamer orkestri ishtirok etdi. O'zbekiston solistlarining chiqishlari turkman halqi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Mazkur yilning 14-20 avgust kunlari Toshkent viloyati, Toshkent va Samarqand shaharlarida Turkmaniston kinosi kunlari bo'lib o'tdi. Milliy urf-odatlar, qadriyatlari bir-biriga o'xshash bo'lgan turkmanistonlik kino ijodkorlar tomonidan 11 ta film namoyish etildi. Shu yilning kuzida Ashxobod shahrida "Turkmaniston va jahon kinosi" xalqaro kinofestivali bo'lib o'tdi. Festival dasturiga dunyoning turli mamlakatlardan kelgan kinoijodkorlar asarlari kiritildi. Mazkur kinofestivalda o'zbekistonlik kino ijodkorlar ham ishtirok etdi.

2019 yil 5-10 aprel kunlari Termiz shahrida ilk bor Xalqaro baxshichilik san'ati xalqaro festival o'tkazildi. Turli xalqlarning milliy o'zligini, ularning tili va hayot tarzini, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi hisoblanadi. YUNESKO shafeligida o'tkazilgan ushbu festivalga 74 davlatdan ijrochilar, folklorshunos olimlar, ekspertlar, shuningdek, Turkmaniston davlatidan ham faxriy mehmonlar qatnashdi. Festival doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, hunarmandlar ko'rgazmasi, "O'zbek oshxonasi" nomli oshpazlar tanlovi kabi tadbirlar ham o'tkazildi.[4] Shuningdek, anjuman doirasida o'tkazilgan xalq sayillarida hunarmandchilik mahsulotlaridan tashqari, milliy soz va liboslar, amaliy va tasviriy san'at asarlari, haykaltaroshlik, badiiy va hujjatli filmlar, kitob, albomlar, fotosuratlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

O'zbekiston hududida ya'ni uning Samarqand shahrida sharq mamlakatlari musiqa san'atining an'analarini asrash, madaniy muloqotni yanada rivojlantirish, sharq xalqlarining an'anaviy musiqa san'ati sohasidagi ilmiy o'rganish va izlanishlarni hamkorlikda amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, davra suhbatlari, taqdimot va mahorat darslarini tashkil etish maqsadida har ikki yilda bir marta «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivali o'tkazib kelinmoqda. Mazkur festivalda Turkmaniston davlati san'at ustalari ham muntazam ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2009 yilda bo'lib o'tgan «Sharq taronalari» xalqaro musiqa festivalida Turkmanistonlik L.Begnazarova «Sharq taronalari» Gran-pri sohibasi bo'ldi[5].

2024 yil 26 avgust kuni O'zbekiston mustaqilligining 33 yilligi munosabati bilan Samarqand shahrida "Sharq taronalari" XIII xalqaro musiqa festivali bo'lib o'tdi[6]. Xalqaro diplomatiyada esa "Samarqand ruhi" degan tushuncha paydo bo'ldi va bu davlatlar, xalqlar o'rtasidagi do'stlik, bag'rikenglik, ahillikni ifoda etmoqda. Dunyoda san'at va madaniyat yo'nalishida ko'plab festivallar, tanlovlar o'tkazilsa-da ularning aksariyati ma'lum vaqtdan keyin to'xtab qolishi, unutilib ketishi mumkin. Ammo "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali 27 yildan buyon tashkil etilib kelinmoqda. Shu vaqtga qadar o'n ikki marta o'tkazilgan san'at festivali jahon ahlining o'zaro madaniy muloqotga bo'lgan hayotiy ehtiyojini ro'yobga chiqaruvchi vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Festival YUNESKO va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning asosiy tadbirlari dasturidan o'rin olgan bo'lib, ular tomonidan qo'llab-quvvatlanib kelinmoqda. Festivalda 80 yaqin mamlakatdan 200 nafardan ziyod san'atkor va olimlar ishtirok etdi. Ayni paytgacha "Sharq taronalari"da dunyoning 120 dan ortiq davlatidan vakillar qatnashdi. Ular orasida turkmanistonlik san'atkorlar shuningdek, ilm-fan ahlari ham ishtirok etdi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida O'zbekiston va turkmaniston respublikalari o'rtasida madaniy sohadagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Madaniy hamkorlikning huquqiy asoslari yaratildi. Turli xildagi festivallar, madaniyat va san'at kunlari tashkil etildi. Kinofestivallarda milliy kinolar namoyish qilindi. Madaniy tadbirlar orqali ikki xalq bir-birining milliy urf-odatlari va qadriyatlaridan bahramand bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. ЎзР МДА. М-7 фонди, 1-рўйхат 332-йиғма жилд. 297-варақ.
2. Жўракулов О.Чандир туркманлари.-Тошкент, "Фан" 1992. – Б.7.
3. Кўҳна, гўзал ва бетакроп санъат овозаси //Халқ сўзи. 2019 йил 10 апрель. – Б. 1.
4. Мирзаев Ғ. Ўзбекистон ва Туркманистон ҳамкорлиги. Монография. – Тошкент, "Innovatsiya-Ziyo" 2021. - Б. 111
5. Мирзаев Ғ.Р. Азалий қардошлиқ ришталари тараққиёт йўлида (ўзбек ва туркман халқлари ҳамкорлиги). Т.: Наврўз, 2016. – Б. 83.
6. https://uza.uz/uz/posts/sharq-taronalari-tinchlik-va-hamzhihatlik-elchisi_629212

5-SHO‘BA
MUSTAQIL O‘ZBEKISTON SHAROITIDA ISLOHATLAR, TURIZM MASALALARI
VA XALQARO ALOQALAR.

63. Buriyev O. Egamova Y. Kitob qalblarni yorituvchi chiroq.....	200
64. Iriskulov O.J. XIX asrning oxiri -XX asr boshlarida Samarqand bozorlari faoliyati	202
65. Kodirova M. Nodavlat-notijorat tashkiloti sifatida xalqaro olimpiya qo‘mitasining faoliyatiga nazar.....	207
66. Normatov Sh.M. Mustaqillik yillarida qadimgi Xorazm mudofaa inshootlarining o‘rganilishi tarixining tarixshunosligi	209
67. Ernazarov A.X O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlar tarixiga bir nazar	211
68. Маматова М.Б. Чайная история Узбекистана в годы независимости	213
69. Mallayeva F. Sayidov M. Mustaqillik yillarida Qashqadaryo Muborak gaz konlari boshqarmasining tarixiy ma’lumotlari	217
70. Qudratov D.T. O‘zbekiston va Eron islom respublikasi xamkorlik tarixidan	219
71. Qo‘chqorov Q. Shaharlar ma’muriy tuzilishidagi o‘zgarishlar va shaharlardagi qurulish va bunyodkorlik ishlari. (Qashqadaryo viloyati misolida)	225
72. Samadova T.M. Nodavlat notijorat tashkilotlarning sog‘likni saqlash sohasidagi faoliyati	229
73. Olimov U.N. Xurramov M. I. Shahrisabzda tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalarning o‘rni.....	232
74. Samadov M. Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash borasida hukumat tomonidan ko‘riladigan chora-tadbirlar	238
75. Hamroqulov O. Ravshanov O. O‘zbekistondagi muzeylar va ularning fondi holati	241
76. Samadova F. O‘zbekistonda profsoyuz tashkilotining ta‘lim sohasidagi faoliyati	243
77. Zayniddinova Sh. So‘nggi yillarda ichki ishlar tizimida amalga oshirilgan strukturaviy o‘zgarishlarning xususiyatlari.	245
78. Karimov M., Chuliyev X. Qo‘shma ta‘lim dasturlari asosida O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash tizimi.....	249
79. G‘aniyev B. Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrining xalqaro festivallardagi ishtiroki....	251
80. Oromov Sh. O‘zbekiston – Turkmaniston davlatlari madaniy aloqalari tarixidan.	253